



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(4)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 116 sahifa,  
12-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

Maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	10
<i>Abilov Muslim Normuxammadovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati.....	14
<i>Bolqiyev Axmad</i>	
Jamiyat muhitida radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimini yaratish .....	17
<i>Axmedova Iroda Shaxitbekovna</i>	
Inklyuziv ta'lim va gospital pedagogikani rivojlantirishda pedagogning tashkilotchilik madaniyati: nazariy va amaliy aspektlar .....	22
<i>Djabborov Ma'sud Bahriddinovich, Arolova Zarina Lochin qizi</i>	
Developing Sociolinguistic Competence in Intensive Teaching of Foreign Languages to Adults .....	28
<i>G. R. Tolibova</i>	
Языковая выразительность и художественный мир сказки "Муха-Цокотуха" .....	31
<i>Garifullina Alsu Robert qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda nasriy asarlarni o'qitish .....	35
<i>Ibodullayeva Madina Muzaffar qizi</i>	
Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari .....	38
<i>Ibroximova Fotimaxon Qobiljon qizi</i>	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining nazariy-metodologik tahlili (CTP dasturi misolida).....	42
<i>Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'llari .....	47
<i>Islamova Fotima Shamsiddinovna, Ismoilova Mohinur Faxriddin qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari .....	52
<i>Mamanazar Djumayev</i>	
Turli vazn toifalaridagi dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish .....	61
<i>I. B. Matmuratova</i>	
Maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining o'rni .....	65
<i>Mutalova Dilnoza Abdurashidovna</i>	
Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning intellektuallik koeffitsientini rivojlantirish va zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish .....	69
<i>Normamatova Sevinch Asror qizi</i>	
Ona tilidan o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari.....	73
<i>Ollqova O'g'iljon Mamanazarovna</i>	
Oliy ta'limda adaptiv raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish modeli ...	77
<i>Quchqarova Dilnovoz Shaymaxammad qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini autentik videomateriallar asosida rivojlantirish metodikasi .....	81
<i>Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna</i>	
Jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini tadqiq etishning zamonaviy ijtimoiy-pedagogik ahamiyati .....	84
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining funksional savodxonligini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish .....	88
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Development of Students' Artistic Taste and Aesthetic Education as a Pedagogical Problem.....	91
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
O'smirlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari...	95
<i>Umarov Qobiljon</i>	



Ta'lim va tarbiya tizimida falsafiy yondashuvning pedagogik asoslari .....	98
<b>Umurov Sharif Rajabovich</b>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlariga oid mashg'ulotlar ustida ishlash .....	102
<b>Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi</b>	
Методические основы развития критического мышления обучающихся при изучении информационных технологий в условиях использования искусственного интеллекта .....	106
<b>Панжиева Назокат Нормаматовна</b>	
Динамика морфологической системы современного русского языка в условиях цифровизации .....	111
<b>Тураева Дилфуза Даминовна</b>	

## NUTQ KAMCHILIGIGA EGA BO'LGAN BOLALARDA NUTQ FAOLIYATINING YUZAGA KELISH XUSUSIYATLARI



Ibroximova Fotimaxon Qobiljon qizi  
Andijon davlat pedagogika instituti  
Maxsus pedagogika kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0009-0007-5055-0587

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining shakllanish va rivojlanish xususiyatlari keng ko'lamda tahlil etilgan. Nutq buzilishlarining turlari, kelib chiqish sabablari va ularning bolalar psixologik hamda ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri o'rganilgan. Logopedik korreksiya yondashuvlari va zamonaviy defektologiya nuqtai nazaridan amalga oshiriladigan tuzatish ishlari muhokama qilingan. Tadqiqot natijalari nutq faoliyatining yuzaga kelishida biologik, ijtimoiy va pedagogik omillarning o'zaro bog'liqligi mavjudligini ko'rsatib beradi.

**Kalit so'zlar:** nutq kamchiligi, nutq faoliyati, logopediya, nutq buzilishi, korreksiya, bolalar psixologiyasi, defektologiya.

**Abstract:** This article broadly analyzes the features of the formation and development of speech activity in children with speech impairments. The types of speech disorders, their causes, and their impact on the psychological and social development of children have been studied. Logopedic correction approaches and corrective work from the perspective of modern defectology are discussed. The research results show the existence of an interconnection between biological, social, and pedagogical factors in the formation of speech activity.

**Key words:** impairment, speech activity, speech therapy, speech disorder, correction, child psychology, defectology.

**Аннотация:** В данной статье широко проанализированы особенности формирования и развития речевой деятельности у детей с речевыми нарушениями. Изучены виды речевых нарушений, причины их возникновения и влияние на психологическое и социальное развитие детей. Обсуждены подходы к логопедической коррекции и коррекционная работа с позиций современной дефектологии. Результаты исследования показывают наличие взаимосвязи биологических, социальных и педагогических факторов в формировании речевой деятельности.

**Ключевые слова:** речевой дефект, речевая деятельность, логопедия, нарушение речи, коррекция, детская психология, дефектология.

### KIRISH

Bolalarda nutq faoliyatining to'liq va samarali shakllanishi ularning intellektual, ijtimoiy va hissiy rivojlanishining poydevori hisoblanadi. Lekin bir qator bolalarda turli etiologik omillar ta'sirida nutq kamchiliklari kuzatiladi va bu holat ularning atrofdagilar bilan muloqot qilish imkoniyatini, o'quv faoliyatini hamda shaxsiy rivojlanishini sezilarli darajada qiyinlashtiradi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab maktab yoshidagi bolalarning taxminan 5-10 foizi turli darajadagi nutq buzilishlaridan aziyat chekadi <sup>[1]</sup>.

Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelishi bir necha muhim jihatlarni o'z ichiga oladi: tovush talaffuzining shakllanish xususiyatlari, leksik-grammatik tizimning rivojlanishi, bog'liq nutqning paydo bo'lishi va kommunikativ kompetensiyaning shakllanganligi. Har bir aspekt o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning har birini alohida hamda bir-biri bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganish nutq kamchiligiga qaratilgan diagnostika va korreksiya ishlarini yanada samarali qilish imkonini beradi <sup>[2]</sup>.

Zamonaviy defektologiya va logopediyaning rivojlanishi natijasida nutq buzilishlarini erta aniqlash va korreksiyalash bo'yicha yangi metodologik yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Biroq hamon nutq kamchiliklari mavjud bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining nozik mexanizmlari to'liq o'rganilmagan va bu soha ilmiy izlanishlarning dolzarb yo'nalishi bo'lib qolmoqda.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nutq kamchiliklariga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining shakllanishi va rivojlanishi masalasi logopediya, defektologiya va psixologiya fanlarida keng o'rganilgan.

R.Ye.Levina nutq buzilishlarini psixologik-pedagogik jihatdan tasniflab, ularning bolalar rivojlanishiga ta'sirini yoritib bergan.

A.R.Luriya nutq faoliyatining neyropsixologik asoslarini tadqiq etib, nutqning shakllanishida bosh miya faoliyatining muhim o'rin tutishini asoslagan.

L.S.Vigotskiy esa nutq va tafakkur rivojlanishi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatib bergan.

Shuningdek, T.B.Filicheva va boshqa olimlar nutq buzilishlarini korreksiyalashning samarali logopedik usullarini ishlab chiqqanlar.

Zamonaviy tadqiqotlarda Stoel-Gammon, Sosa, Beukelman va Mirenda tomonidan bolalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish hamda muqobil kommunikatsiya vositalaridan foydalanish masalalari yoritilgan.

Mazkur ilmiy qarashlar nutq kamchiliklariga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining shakllanish va rivojlanish xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan nazariy-metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida logopediya, defektologiya, psixologiya va pedagogika sohalariga oid ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, maqolalar hamda metodik manbalar tahlil qilindi.

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, ilmiy manbalarni o'rganish va umumlashtirish metodlari tashkil etdi. Nutq buzilishlarining turlari, kelib chiqish sabablari hamda ularning bolalar nutq faoliyatiga ta'siri logopedik va psixologik nuqtai nazardan tahlil qilindi. Shuningdek, nutq faoliyatining shakllanishida biologik, ijtimoiy va pedagogik omillarning o'rni o'zaro bog'liqlikda o'rganildi.

Tadqiqot davomida mahalliy va xorijiy olimlarning nutq rivojlanishi, nutq buzilishlari va korreksion-logopedik ishlar bo'yicha ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, zamonaviy logopedik yondashuvlarning samaradorligi baholandi. Olingan ilmiy-nazariy ma'lumotlar umumlashtirilib, nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatini rivojlantirishga oid xulosalar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

### Nutq kamchiliklari: tasnifi va kelib chiqish sabablari

Nutq kamchiliklari klinik-pedagogik va psixologik-pedagogik tasniflar asosida turkumlashtiriladi. R.Ye. Levina tomonidan ishlab chiqilgan psixologik-pedagogik tasnif bolalardagi nutq buzilishlarini ikkita asosiy guruhga - muloqot vositasi sifatida nutqning buzilishi va muloqot qilish jarayonining buzilishi - bo'lib ko'rsatadi<sup>[3]</sup>. Bu tasnif logopedik amaliyotda keng qo'llaniladi va korreksion ishlarni rejalashtirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Nutq kamchiligining asosiy shakllari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- dizartriya - markaziy asab tizimining organik shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan nutq apparati mushaklarining funksional buzilishi;
- alaliya - miyaning nutq markazlariga perinatal yoki erta postnatal davrda ta'sir ko'rsatgan jarayon natijasida nutqning shakllanmasligi;
- rinolaliya - ovoz-talaffuz apparatining anatomik-fiziologik o'zgarishlari bilan bog'liq nutq buzilishi;
- duduqlanish - nutqning ritmik va sur'atli tashkil etilishining buzilishi<sup>[4]</sup>.

Nutq kamchiliklari kelib chiqishiga ko'ra biologik va ijtimoiy omillarga bo'linadi. Biologik omillarga homiladorlik davridagi infeksiyalar, toksinlar ta'siri, genetik moyillik, chala tug'ilish, tug'ruq jarayonidagi asoratlar va erta bolalik davrida o'tkazilgan miya kasalliklari kiradi. Ijtimoiy omillar orasida nutq muhitining yetarli emasligi, ikki tillilik sharoiti, pedagogik e'tiborsizlik va stress holatlari alohida o'rin tutadi<sup>[5]</sup>.

### Nutq faoliyatining psixofiziologik mexanizmlari

Nutq faoliyatining psixofiziologik asoslari murakkab miyaviy mexanizmlarni o'z ichiga oladi. A.R.Luriyaning tadqiqotlari nutqning shakllanishida miyaning turli zonalarini - temporal, frontal, parietal va oksipital bo'limlari - o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hal qiluvchi rol o'ynashini isbotlab berdi<sup>[6]</sup>.

Broka markazi (nutq ishlab chiqarish) va Vernike markazi (nutqni tushunish) o'rtasidagi koordinatsiya buzilganda turli darajadagi afaziya holatlari kuzatiladi. Nutq kamchiligiga ega bolalarda neyrofiziologik tekshiruvlar bir qator o'ziga xos xususiyatlarni ochib beradi. Elektroensefalografik tadqiqotlar bunday bolalarda delta va teta to'liqlarining yuqori aktivligi, alfa-ritmning sustligi va nutqni qayta ishlashga mas'ul bo'lgan temporal-parietal hududlarda asimmetriya mavjudligini ko'rsatadi [7]. Bu neyrofiziologik o'zgarishlar nutq faoliyatining yuzaga kelishidagi qiyinchiliklarni yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Fonematik idrok etish qobiliyati nutq faoliyatining shakllanishida markaziy o'rin tutadi. Nutq kamchiligi mavjud bolalarda bu qobiliyat odatda yaqqol pasaygan bo'ladi: ular ona tilining fonemalarini bir-biridan aniq farqlay olmaydi, tovushlar ketma-ketligini to'g'ri qayta tiklay olmaydi va nutqning prosodik tuzilishini yetarli darajada idrok eta olmaydi [8]. Shu boisdan ham fonematik rivojlantirish nutq korreksiyasining muhim tarkibiy qismi sanaladi.

### **Nutq faoliyatining leksik-grammatik jihatdan rivojlanishi**

Nutq kamchiligiga ega bolalarda lug'at boyligi norma bilan qiyoslanganda sezilarli darajada past bo'ladi. Passiv lug'at aktiv lug'atdan ancha keng bo'lganligi kuzatiladi, ya'ni bolalar ko'p so'zlarni tushunsa-da, ulardan nutqda foydalana olmaydi. T.B.Filichevaning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, nutqning umumiy rivojlanmaganligiga (NUR) ega bolalarda ot va fe'llar nisbatan yaxshiroq o'zlashtirilgan bo'lsa-da, sifat, ravish va yordamchi so'z turkumlari juda kam uchraydi [9].

Grammatik tizimning o'zlashtirilishida quyidagi qonuniyatlar kuzatiladi: nutq kamchiligiga ega bolalar avval oddiy bir bo'g'inli gaplarni o'zlashtiradi, keyin asta-sekin ikki va uch so'zli gaplarni qurishga o'tadi. Lekin bu jarayon norma ko'rsatkichlariga nisbatan 1,5-2 yilga kechikadi. Gaplarni tuzishda so'z tartibining buzilishi, kelishik qo'shimchalari va fe'l nisbat shakllarining noto'g'ri qo'llanishi, prefiks-suffiks tizimini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar keng tarqalgan xatolar hisoblanadi [10].

### **Bog'liq nutq va kommunikativ kompetensiya shakllanishi**

Bog'liq nutqning shakllanishi, ya'ni fikrni izchil, mantiqiy va to'liq ifodalash qobiliyati nutq faoliyatining eng yuqori ko'rinishi hisoblanadi. Nutq kamchiligiga ega bolalarda bu qobiliyat ko'pincha sezilarli darajada zaif rivojlangan bo'ladi. Ular hikoya tuzishda mavzudan chetga chiqadi, voqealar ketma-ketligini buza boshlaydi va bog'lovchi vositalardan yetarlicha foydalana olmaydi. Bunday bolalar rasmga qarab hikoya tuzishda yoki o'qilgan matnni qayta aytib berishda jiddiy qiyinchiliklar bilan duch keladi [11, 17].

Kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonida amalga oshadi. Nutq kamchiligiga ega bolalarda muloqotga kirishishda ikkilanish, so'z topish qiyinchiliklari va noto'g'ri tushunilib qolish qo'rquvidan kelib chiqadigan kommunikativ passivlik kuzatiladi. L.S.Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi nuqtai nazaridan yondashilganda, bunday bolalar bilan muloqotda kattalar tomonidan ko'rsatiladigan yordamli scaffolding strategiyasi nutq faoliyatini rag'batlantirishdagi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi [12].

### **Korreksion-logopedik ishlarda zamonaviy yondashuvlar**

Zamonaviy korreksion pedagogika nutq kamchiliklari bo'lgan bolalar bilan ishlashda kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu yondashuv logopedik, defektologik, psixologik va tibbiy chora-tadbirlarning uyg'unligini nazarda tutadi. Erta intervensiya - ya'ni 2-3 yoshdan boshlab korreksion ishlarni boshlash - nutq faoliyatining yanada to'liq shakllanishiga olib keladigan eng samarali strategiya sifatida tan olingan [13].

Augmentativ va alternativ kommunikatsiya (AAK) tizimlari nutq imkoniyatlari jiddiy cheklangan bolalar uchun muloqot vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda. Piktogramma kartalari, nutq generatorlari va maxsus kompyuter dasturlari bolaga ifoda etuvchi nutq shakllanmaguncha muloqot qilish imkonini beradi, bu esa kommunikativ frustratsiyani kamaytiradi va ijtimoiy integratsiyani osonlashtiradi [14]. Bundan tashqari, so'nggi yillarda neyrote-rapiya va biosensorli qayta aloqa usullari ham logopedik amaliyotga faol kirib kelmoqda.

Oila muhiti va ota-onalar ishtirokining korreksion jarayondagi roli beqiyosdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalar maxsus kommunikativ strategiyalar bilan qurollantirilib, kundalik muloqotda qo'llaganda bolaning nutq faoliyati sezilarli tezlikda rivojlanadi [15]. Shu sababli zamonaviy logopedik xizmatlar ota-onalarni faol hamkor sifatida jalb qilishni korreksion jarayonning ajralmas tarkibiy qismi deb hisoblaydi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Yuqorida bayon etilgan ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, nutq kamchiligiga ega bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelishi ko'p omilli va murakkab jarayon hisoblanadi. Biologik, neyrofiziologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o'zaro kesishmasida yuzaga keladigan bu jarayon har bir bola uchun individual xarakterga ega va standart yondashuvlar bilan to'liq qamrab olinmaydi. Nutq kamchiligiga ega bolalarda nutq faoliyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular ko'pincha bir modallikda zaif bo'lgan kommunikatsiya imkoniyatlarini



boshqa modallik orqali qoplashga harakat qiladi. Masalan, og'zaki nutqi rivojlanmagan bolalar imo-ishoradan, yuz ifodalaridan va proksmik vositalardan keng foydalanadi. Bu kompensator mexanizm nutq korreksiyasida ijobiy resurs sifatida ishlatilishi mumkin.

Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelishi quyidagi umumiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- nutqning barcha tarkibiy komponentlari - fonetika, leksika, grammatika va pragmatika - bir vaqtda, ammo turli darajada zararlanadi;
- nutq rivojlanishi kechikadi, lekin ma'lum tizimlilikka ega bo'lib, biologik va ijtimoiy omillarning birgalikdagi ta'sirida shakllanadi;

kompensator mexanizmlar hisobiga nutq faoliyatining ba'zi jihatlari mustaqil ravishda rivojlanishi mumkin.

Korreksion ishlarning samarali bo'lishi uchun quyidagi shartlar bajarilishi zarur:

- erta diagnostika va erta boshlangan korreksion ta'lim;
- logopediya, psixologiya, tibbiyot va oilaning integratsiyalashgan hamkorligi;
- bolaning kommunikativ motivatsiyasini oshirishga qaratilgan faoliyat asosidagi yondashuv;
- korreksiya jarayonida nutqning nafaqat og'zaki, balki muloqotning barcha shakllarini rivojlantirish.

Mazkur sohadagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, xususan, O'zbekistondagi bolalar nutqining xususiyatlari va o'zbek tilining fonetik-grammatik tizimi kontekstida nutq kamchiligini o'rganish alohida dolzarblik kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. World Health Organization. (2021). Communication disorders: A global public health issue. WHO Press, Geneva.
2. Волкова Л. С. Логопедия: учебник для студентов дефектологических факультетов. - М.: Владос, 2009. - 680 с.
3. Левина Р. Е. Основы теории и практики логопедии. - М.: Просвещение, 1968. - 367 с.
4. Правдина О. В. Логопедия: учебное пособие. - М.: Просвещение, 2020. - 272 с.
5. Шашкина Г. Р., Зернова Л. П. Логопедическая работа с дошкольниками. - М.: Академия, 2018. - 240 с.
6. Лурия А. Р. Основы нейропсихологии. - М.: Академия, 2002. - 384 с.
7. Бехтерева Н. П. Магия мозга и лабиринты жизни. - СПб.: АСТ, 2004. - 383 с.
8. Туманова Т. В. Нарушение звуковой стороны речи у дошкольников. - М.: Логопед, 2015. - 160 с.
9. Филичева Т. Б., Чиркина Г. В. Программа логопедической работы по преодолению общего недоразвития речи у детей. - М.: Просвещение, 2016. - 112 с.
10. Гвоздев А. Н. Вопросы изучения детской речи. - СПб.: Детство-Пресс, 2007. - 471 с.
11. Глухов В. П. Формирование связной речи детей дошкольного возраста. - М.: АРКТИ, 2019. - 168 с.
12. Выготский Л. С. Мышление и речь. - М.: Лабиринт, 1996. - 416 с.
13. Stoel-Gammon, C., Sosa, A.V. (2010). Phonological development. In E. Hoff & M. Shatz (Eds.), Blackwell Handbook of Language Development. Wiley-Blackwell. - pp. 238–256.
14. Beukelman, D.R., Mirenda, P. (2013). Augmentative and alternative communication: Supporting children and adults with complex communication needs (4th ed.). Paul H. Brookes Publishing, Baltimore. -618
15. Fatima, I., & Erkaboyeva, N. S. (2023). Ijtimoiy standartlar bo'yicha boshlang'ich maktab o'quvchilarida maxsus ta'lim muassasasining malakasini shakllantirish yo'llari. Galaxy International Interdisciplinary

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(4)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.